



O‘ZBEKISTONDA TURIZIMNING RIVOJLANISHINI BAHOLASH.

Musurmankulova Gulchexra Isabekovna

“Tarmoqlar Iqtisodiyoti” kafedrası katta o‘qituvchisi

Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14807784>

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi, turistik infratuzilmaning kengayishi va turizm soxasi xizmatchilarining faoliyatiga baho berilgan. Unda turizm turlari, xususan, tarixiy, ekologik, arxeologik va ekstremal yo‘nalishlar haqida batafsil ma’lumot beriladi. "o‘zbekturizm" milliy kompaniyasining tashkil etilishi, uning sohani rivojlantirishdagi o‘rni va vazifalari, shuningdek, xalqaro me‘yorlarga mos mehmonxona va dam olish maskanlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Maqolada tarixiy shaharlardagi me‘moriy obidalar va zamonaviy turizm xizmatlarining uyg‘unligi o‘zbekistonni jahon turizm bozoridagi istiqbolli hududga aylantirishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, turizm, tarixiy obidalar, ekologik turizm, mehmonxonalar, turistik infratuzilma, ziyorat turizmi, xalqaro hamkorlik.

KIRISH

O‘zbekiston — o‘zining boy madaniy-tarixiy merosi, betakror tabiat manzaralari, mehmondo‘st xalqi bilan dunyoga mashhur mamlakat. Yurtimizning turizm sohasi salohiyatini e’tirof etgan holda, xalqaro va mahalliy sayyohlarni jalb etish, o‘ziga xos sayyohlik tajribasini yaratishga qaratilgan turizm brendini rivojlantirish strategiyasi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqildi. Hozirgi kunda turizm ko‘plab mamlakatlar uchun ommaviy va muhim sohalardan biriga aylangan. Turizm odatda maxsus tashkilotlar tomonidan belgilangan marshrutlar asosida tashkil etiladi. U ichki va xalqaro turizm, havaskorlik, uyushgan turizm, ekologik sayohat, bilimli dam olish, sport turizmi va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish va boshqarishni 1992-yil 27-iyulda tashkil etilgan "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasi amalga oshiradi. Kompaniya faoliyati turistik infratuzilmani rivojlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, zamonaviy dam olish maskanlarini barpo etish, yangi yo‘nalishlarni ishlab chiqish va xizmat turlarini kengaytirishga qaratilgan.

"O‘zbekturizm" tomonidan ishlab chiqilgan turizm yo‘nalishlari:

Klassik yo‘nalish: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarga tashrif.

Ekologik yo‘nalish: Chimyon, Chorvoq, Zomin qo‘riqxonasi kabi tabiiy hududlarga sayohat.

Arxeologik yo‘nalish: Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston va Samarqand hududlaridagi qazilmalar bilan tanishish.

Ekstremal turizm: Tog‘ va cho‘l hududlarida faol dam olish.

Ziyorat turizmi: Tarixiy va diniy obidalarga ziyorat.

Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub’yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining "Turizm to‘g‘risida"gi qonuni kabul kilingan (O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-son Qonunning 5-moddasiga ko‘ra turizmning shakllari va turlari

Xalqaro va ichki turizm turizmning shakllaridir.

Xalqaro turizm quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

kirish turizmi — O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi sayohati;



chiqish turizmi — O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning boshqa mamlakatga sayohati.

Ichki turizm O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi sayohatini o‘z ichiga oladi.

Turizm tashkil etilayotgan turning o‘ziga xosligi, mavzusi, davomiyligi, harakatlanish usullari va turning boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm hamda turizmning boshqa turlariga bo‘linishi mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turizm infratuzilmasi jadal rivojlanmoqda. Turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida ko‘plab zamonaviy dam olish maskanlari va mehmonxonalar faoliyat yuritmoqda.

Dam olish maskanlari:

Chorvoq, Chimyon, Beldersoy: Bu maskanlar tabiiy go‘zalligi va zamonaviy qulayliklari bilan mashhur. Tog‘-chang‘i kurortlari, sog‘lomlashtirish markazlari va yozgi sport turlari uchun mos infratuzilma yaratilgan.

Zomin va Ugam-Chotqol milliy bog‘i: Ekoturizm uchun mo‘ljallangan ushbu hududlar sayyohlar orasida juda ommabop bo‘lib, tog‘ havosi va tabiiy landshaftlar bilan zavqlanish imkonini beradi.

O‘zbekistonda "Kumushkon" turistik bazasi va "Sanzar" kemping majmuasi mavjud bo‘lib, ular "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasi tizimi tashkilotlari hisoblanadi. O‘zbekiston

1993-yilda o‘z safiga 120 dan ortiq mamlakatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (WTO; 1975-yilda tuzilgan)ga a’zo bo‘ldi. Shuningdek, O‘zbekiston WTO Yevropa komissiyasi rayosatining ham a’zosi. 2004-yil "Buyuk ipak yo‘li" loyihasi doirasida Samarqand viloyatida Jahon turistik tashkilotining vakolatxonasini ochish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston o‘zining ko‘plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur’atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o‘ziga tortmoqda. Asrlar mobaynida O‘zbekiston Buyuk ipak yo‘lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo‘g’rofiyashunoslar va missionerlar, isti’lochilar va zabt etuvchilarning yo‘lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O‘zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an’ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Toshkent.

Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti va Markaziy Osiyodagi eng katta shaharlardan biri. O‘zbekiston o‘tmishdagidek hozirgi paytda ham Toshkent o‘zimizning O‘zbekiston Havo Yo‘llari va xalqaro aviakompaniyalar yordamida xalqaro transport yo‘nalishlarining chorrahasidir. Bugungi kunda O‘zbekistonda yuzga yaqin muzeylar ishlab turibdi va ularning yarmi mamlakatning poytaxtida joylashgan. Ularning har biri o‘zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Poytaxt markazida Temuriylar tarixi Davlat Muzeyi joylashgan bo‘lib, uning ulkan ko‘k gumbazi Samarqandning qadimiy gumbazini eslatadi.

Uning eksponatlari O‘zbekiston hududida o‘rta asrlardagi davlatchilik shakllarini shakllanishidan guvohlik beradi va Amir Temur davridagi fan, madaniyat va san’atning rivojlanishini aks ettiradi. Samarqand. Asrlar mobaynida O‘zbekiston shaharlari Buyuk ipak yo‘li va qadimiy transkontinental magistral hayotida muhim rol o‘ynadi. Birgina Samarqand esa “Buyuk Ipak yo‘lining yuragi” deb nom oldi.

Qadim davrlarda Samarqand “Islom me’morchiligi marvaridi”, “Dunyo ko‘zgusi” kabi nomlar bilan ta’riflangan. Qadimiyligi bilan Rim, Afina va Vavilonga teng bo‘lgan Samarqand



o'zining 2750 yilligini nishonladi. Afsonaviy Registon maydoni Markaziy Osiyoning takrorlanmas me'moriy yodgorligidir. Qadimda bu maydon Samarqandning savdo va ijtimoiy markazi bo'lgan. Bu yerda bir necha asrlik uch ulkan binolari Ulug'bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari qad ko'targan. Go'ri-Amir maqbarasi qadim Samarqandning yana bir marvarididir. Buyuk davlat hukmdori Amir Temur va uning ikki nevarasi jumladan sharqning buyuk olim va mutaffakiri Mirzo Ulug'bek qabrlari joylashgan. Havorang lolalarning yaproqlari tig'iz qilib joylashtirib chiqilgan g'unchaga o'xshash Go'ri-Amir maqbarasi sayyohlar uchun juda taniqli joy. Buxoro. Qadimdan

Buxoro vohaning zich aholiga ega markazi bo'lib kelmoqda. Uning yoshi 2500 da. Qulay muhit va 140 dan ortiq qadimiy me'moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli joylaridan biri bo'lib qolaveradi. Huddi to'r bilan qoplangan

Ismoil Samoniy maqbarasi, ulkan qo'rg'on va Buxoro hukmdorining mustahkam qarorgohi Ark, Minorai Kalon, jonli labirint kabi ko'plab masjid va madrasalar, karvon-saroylar, hammom kabi yodgorliklar muqaddas Buxoroning tengi yo'q marvaridlaridan bo'lib qoladi.

Mehmonxonalar:

Turli dizayn va uslublar: Mehmonxonalar turistlarning didiga qarab tanlov imkoniyatini taklif qiladi. Yevropa uslubidagi zamonaviy interyerlardan tortib, sharqona naqshlar bilan bezatilgan mehmonxonalargacha mavjud.

Toshkent, Samarqand, Buxoro va Urganch: Bu yirik shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan, barcha qulayliklarga ega mehmonxonalar joylashgan.

Mehmonxona tarmoqlari nafaqat qulay turar joy, balki milliy taomlar, madaniy tadbirlar va dam olishni ham taklif qiladi.

Xususiy sektor: Yuzlab xususiy mehmonxonalar xizmat ko'rsatmoqda. Ularda turistlar sharqona mehmondo'stlikni his qilishlari mumkin.

Bugungi kunda mamlakatda 350 dan ortiq mehmonxona faoliyat yuritib, ularning barchasi xalqaro talablarga mos xizmatlarni taklif etadi. Zamonaviy qulayliklar va sharqona mehmondo'stlikni birlashtirgan ushbu infratuzilma har yili ko'plab turistlarni jalb etmoqda.

Transport. O'zbekiston hozirda rivojlangan transport infrastrukturasiga ega. Manzilga yetib olishingiz uchun sizga Buyuk Ipak Yo'li davridagidek bir oy kerak emas. O'zbekiston bo'ylab katta shaxarlarga aviatsiya yordamida yetib olish tez va qulay. Sayyohlar mamlakatning chiroyli manzaradan qulay va tez bo'lgan transport vositasi mashina yoki avtobuslardan foydalanadilar. Aktiv sayohatlar. O'zbekiston faqatgina tarixiy va afsonaviy me'morchiligi bilan mashxur bo'lib qolmasdan, aktiv sayyohlik yo'nalishlariga ham ega. Mamlakatimizning geografik jihatdan qulay joylashganligi bu yerda zamonaviy qulaylik va yovvoyi tabiatning uyg'unlikka kirisha olishiga inkoniyat beradi.

O'zbekiston hududida har qanday tabiat landshaftlarini; tog', vodiylar, cho'l, daryo va ko'lni uchratish mumkin. Otda sayr. Otda yurish har qanday yoshdagi va har qanday temperamentdagi odamga zavq bag'ishlaydi. Va bu bilan yil bo'yi betakror iqlim sharoitlarida shug'ullanish mumkin. Otda yurishning eng mashxur yo'nalishlaridan biri bu o'zining flora va faunasi bilan mashxur bo'lgan Ugam-Chotqol milliy bog'idir. Toshkentdan go'zal vodiylar dengiz sathidan 1600 metr balandligda bo'lgan katta va kichik Chimyon tog'lari etagida joylashgan dam olish maskani "Chimyon oromgohi" ga 90 kilometrlik masofani otda bosib o'tishlari mumkin. Bu yerda mahalliy otlar zotidan qurama qorabair va shuningdek axaltek zotli otlarda sayr qilish mumkin. Tog' havosining turli xil gullar va o'simliklarning isi bilan to'lgan musaffoligi, egarning g'ichrlashi, ot tiyoqlarining bir xilda taqillashi va ochiq osmon ostidagi hissiyotga to'la kechki nonushta bir umrga unutilmas taasurotlar qoldiradi.



O'zbekistonga 2024 yilning yanvar-oktyabr oylarida qariyb 6,5 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan.

Statistika agentligi xabariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 2023 yilning mos davri bilan solishtirilganda 951,3 ming nafarga yoki 17,2 foizga oshgan.

Yanvar-oktyabr oylarida O'zbekistonga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari mamlakatlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan:

Tojikiston – 1 878,5 ming nafar;

Qirg'iziston – 1 870,3 ming nafar;

Qozog'iston – 1 267,5 ming nafar;

Rossiya – 686,7 ming nafar;

Turkmaniston – 145,0 ming nafar;

Turkiya – 95,7 ming nafar;

Xitoy – 57,7 ming nafar;

Hindiston – 55,9 ming nafar;

Janubiy Koreya – 36,5 ming nafar;

Italiya – 36,3 ming nafar;

boshqa davlatlar – 366,6 ming nafar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, infratuzilmani rivojlantirish O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mehmonxona infratuzilmasini qurish va modernizatsiya qilish, transport tarmog'ini rivojlantirish, tabiiy va madaniy hududlarda sayyohlik obyektlarini yaratish, shuningdek, axborot infratuzilmasini yaxshilash – bularning barchasi sayyohlarni yanada ko'proq jalb etish va ularning qulay dam olishini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston hukumatining infratuzilmani rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari mamlakatning sayyohlik salohiyatini yuzaga chiqarish, xalqaro va mahalliy sayyohlar uchun jozibador manzilga aylanish imkonini bermiqda

O'zbekiston turizm sohasida boy tarixiy va madaniy merosi, tabiiy go'zalliklari hamda zamonaviy infratuzilmasi bilan jadal rivojlanmoqda. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi va hukumat tashabbuslari tufayli ichki va xalqaro turizm yo'nalishlari kengayib, klassik, ekologik, ekstremal va ziyorat turizmi kabi xizmatlar taklif qilinmoqda. Turizm rivojini qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy mehmonxonalar, dam olish maskanlari va transport vositalari infratuzilmasi rivojlantirilmoqda. Bu boradagi olib borilayotgan ishlar O'zbekistonni jahon turizm xaritasida muhim markazlardan biriga aylantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni (18.07.2019).
- 2.Jahon Turistik Tashkiloti (WTO) hisobotlari va nashrlari.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi rasmiy hujjatlari.
- 4.4.Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Fan va texnologiya", 2014. –151-b
- 5.kun.uz.2024yil.11.17